

**«MADANIY aTShUNOSLIK»**  
**fanidan**  
**DASTUR**

**Tuzuvchilar:** t.f.d., prof. Q.Usmonov,  
t.f.n., prof. M.Sodiqov,  
p.f.n., k.o'q. F.Babashev,  
k.o'q. S.To'laganova,  
k.o'q. V.Topchiy.

**Taqrizchilar:** t.f.d., prof. A.Hazratqulov,  
t.f.n., dots. T.Yunusov,  
t.f.n., dots. B.Karimov.

Dasturda jahon va O'zbekiston madaniyatining mohiyati, uning rivojlanish xususiyatlari, qonuniyatlari, jahon va milliy - madaniy merosni asrab - avaylash hamda uni kelajak avlodga etkazish muammolari tahlil qilinadi.

Изучаются сущность, особенности и закономерности развития мировой и отечественной культуры, анализируются проблемы сохранения, умножения мирового и национального культурного наследия, вопросы передачи его подрастающему поколению.

Worlds and home culture's development essence, peculiarities and regularities are studied, the problems of keeping, multiplication of world and international cultural legacy, problems of passing them to the young generation are analyzed.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan. (25 aprel 2002 yil 9 - sonli bayonnoma).

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan. (25 aprel 2002 yil 9 - sonli bayonnoma).

## 1. SO'Z BOSHI

Respublikamiz Oliyta'lim muassasalarida "Madaniyatshunoslik" fanining o'qitila boshlanishimustaqillikning ma'naviyat jabhasidagi muhim qadami bo'ldi. Zero, yurtimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqishi, iqtisodiyotni yangi tamoyillar asosida boshqarishga o'tilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida demokratik xuquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatining barpo etilayotganligi, mantiqiy tarzda madaniyat, ma'naviyat muammolariga yangicha yondashish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Bu - ob'ektiv jarayon. Milliy, tarixiy tajribalar asosida yangi jamiyat barpo etilayotgan ekan, bu jarayon jamiyatning barcha jabhalarini (iqtisodiy, siyosiy - huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy) makon va zamonda bir butun tizim tarzida yangilanishini talab etmoqda. Bu, avvalo, ma'naviyatga yangicha munosabat, ajdodlar merosini e'zozlash, uni asrash, o'rganish va boyitish asnosida komil insonlikka erishish demakdir.

**Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari** – «Madaniyatshunoslik» fanining asosiy maqsadi – bakalavriat talabalarini jahon, birinchi navbatda, Sharq madaniyati, xususan Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi, betakror obidalari, mutafakkirlar asarlarida jamlangan ma'naviy merosni, barhayot udum, an'ana, turmush va fikr tarzini ifodalovchi ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan. Ikkinchidan, tarixiy haqiqatni qaror toptirish, ajdodlar merosini bakalavriat talabalariga o'rgatish asnosida ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalash, ularda o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usi, Ona - yurt g'ururi, sharqona qadriyatlar asosida milliy mafkurani shakllantirishdir.

**Boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi** – «Madaniyatshunoslik» fani ijtimoiy - gumanitar, jumladan, tarix, falsafa, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya singari fanlar bilan bevosita uyg'unlikda o'rganiladi.

«Madaniyatshunoslik» fani auditoriya mashg'uloti turlari soatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan. Ma'ruzalar - 18 soat (50%), seminar mashg'ulotlari - 18 soat (50%).

## 2. FAN DASTURI

**Madaniyatshunoslik fanining predmeti, metodologik asoslari va ahamiyati** – «Madaniyatshunoslik» fanining maqsadi, tadqiqot predmeti va vazifasi. Fanning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rnini, o'ziga xosligi va amaliy ahamiyati.

Madaniyatshunoslik tarixida madaniyat tushunchasining talqini. Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida. Moddiy va ma'naviy madaniyat.

Tabiat va madaniyat. Madaniyat - inson shaxsi va uning turmush tarzini tarkib toptirishning o'ziga xos usuli. Madaniyat va tsivilizatsiya. Jahon xalqlari madaniyatidagi o'ziga xoslik va umumiylik. Madaniyatlar muloqoti. Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir - biriga ta'siri.

Vorislik - madaniy taraqqiyotning muhim qonuniyati. Tarixiy izchillik va madaniy meros. *Ma'naviyat va milliy qadriyatlar*. Ma'naviyat tushunchasi, uning asosiy shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi *Milliy qadriyatlar va shaxs ma'naviyati*. Milliy istiqlol va milliy Uyg'onish davridagi barkamol avlod tarbiyasida madaniyatshunoslik fanining o'rnini va roli.

**Qadimgi Sharq madaniyati** - qadimgi Sharq madaniyatining tarixiy va davriy chegaralari. Madaniyatning eng qadimgi o'chog'i - qadimgi Mesopotamiya jamiyatlari madaniyati. Shumerlar madaniyati.

Qadimgi Misr madaniyatining shakllanish davri. Jahon madaniyati rivojlanishida qadimgi Misr madaniyatining o'rnini.

Markaziy Osiyo madaniyati shakllanishining tabiiy - iqlimiy va etnik shart - sharoitlari. Qadimgi qabilalar madaniy aloqalarining yo'nalishlari, madaniy hayotning afsona va rivoyatlarda aks ettirilishi. Diniy e'tiqodlar, Zardushtiylik va «Avesto».

Ellin madaniyatining Sharqqa kirib kelishi. Kushonlar davrida Baqtriya madaniyati. Buddha yodgorliklari. *Buyuk ipak yo'li – G'arb va Sharq xalqlari o'rtasidagi madaniy ko'prik*.

Qadimgi Hindiston madaniyati. Braxmanizm - jamoani tabaqalashtirish. Birinchi jahon dini - Buddizmning shakllanishi. Mohinjo - Daro va Xarappa tsivilizatsiyasi.

Qadimgi Xitoy tsivilizatsiyasi vujudga kelishining shart - sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlari. Konfutsiychilik, daosizm, moizm va legizm kabi falsafiy ta'limotlarning paydo bo'lishi. Xitoy madaniyatining ijtimoiy - axloqiy mazmuni. qzuv, adabiyot, san'at yodgorliklari. Buyuk Xitoy devori. Xitoy madaniyatining qo'shni xalqlarga ta'siri.

**Antik davr Evropa madaniyati** - qadimgi madaniyatning cho'qqisi bo'lmish antik madaniyatning jahon madaniyati rivojidagi o'rnini. Afina, Sparta va Rim

madaniyati: umumiylik va o'ziga xosliklar. Qadimgi yunon tsivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Tasviriy san'at, me'morchilik, teatr, sportning antik madaniyatdagi o'rni. Notiqlik san'ati.

Qadimgi Lotin madaniyati. Qadimgi rimliklarning dunyoni idrok etish xususiyatlari. Qadimgi rimliklarning harbiy san'ati. Rim huquqi. Rimliklarning muhandislik inshootlari. Haykaltaroshlik, me'morchilik. *Ellinistik mada niyatining qadimgi lotin madaniyatiga ta'siri. Sharqdagi ellinistik markazlar. Antik madaniyat inqirozi va xristianlikning vujudga kelishi.*

**O'rta asrlar Evropa madaniyati** - o'rta asrlardagi "Dunyo qiyofasi". Evropa va Sharq madaniyatining xristian va islom dini aqidalarida namoyon bo'lishi.

Evropa o'rta asrlar madaniyatining manbai: antik madaniyat, xristianlik, musulmon Sharqi. O'rta asrlar Evropa madaniyatining tabaqa - manfaatchilik xususiyati. Xristian madaniyati. Ritsarlik va rohiblik - hayot tarzi sifatida. Vizantiya madaniyati. *Roman san'ati. Gotika. Shahar madaniyatining rivojlanishi.* Universitet ilmining vujudga kelishi. Kitob chop etishning yo'lga qo'yilishi. Qahramonlik eposlari. Geografik kashfiyotlar va dengiz yo'lining kashf qilinishi. *Texnika yutuqlari. Musiqa madaniyati va haykaltaroshlik.*

**Sharq Uyg'onish davri madaniyati** - Markaziy Osiyo Rennessansi va uni davrlashtirish muammolari. IX - XI asrlardajtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlar. *Islom madaniyatining shakllanishi. Bog'dod va boshqa madaniyay markazlar bilan Movarounnahr shaharlarining aloqalari.* Bog'dod va Xorazm Ma'mun akademiyalari. Markaziy Osiyo san'atida arab xalifaligi va mahalliy madaniy oqimlarning o'zaro sintezi jarayonining kuchayishi. Tabiiy, falsafiy - axloqiy va diniy - tasavvufiy fanlarning taraqqiy qilishi. *Markaziy Osiyo allomalarining ijodi va ularning jahon ilm - fani taraqqiyotida tutgan o'rni.*

Me'morchilik va tasviriy san'atdagi uslubiy o'zgarishlar: madrasa, masjid, maqbara - xonaqohlar, karvonsaroy, rabot, tim kabi maishiy savdo hamda muhofaza qurilishlari va ularning uslublari. IX - XII asrlar me'moriy yodgorliklari: Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, Timdagi Arab Ota maqbarasi, Karmana shahri yaqinidagi Raboti Malik, Termizdagi Hakim at - Termiziy, Sulton Saodat, Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi. Amaliy san'atning kulolchilik, to'quvchilik singari shakllarining rivojlanishi.

Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlatda madaniy - maishiy hayotni rivojlantirish shart - sharoitlari. XIV asr oxiri XV asrda Movarounnahrda qurilgan me'moriy obidalar (Go'ri Amir, Oqsaroy, Bibixonim, Shohi Zindadagi me'moriy qurilishlar, bog' va ko'shk, saroylar, Registon ansambli, Buxoro va G'ijduvondagi masjid va madrasalar). Ulug'bek akademiyasi faoliyati. Ulug'bek rasadxonasi.

Temuriylar davridagi ilm - fan va adabiyot ahli Tasviriy san'at rivoji. Samarqand va Hirot maktablari. Hattotlik va kitobat. Madaniy muhitga Naqshbandiylik tariqati suluklariningta'siri.

*Temuriylar davri madaniyatining Markaziy Osiyo va jahonda tutgan o'rni hamda ahamiyati.*

**Evropa Uyg'onish davri madaniyati** - Uyg'onish davrida yangi Evropa madaniyatining shakllanishi. Evropada Uyg'onish davri madaniyatining rivoji va antik an'analarning tiklanishi. Gumanizm. Yangi inson idealining shakllanishi. Italiya adabiyoti va san'ati. Reformatsiya, kitob nashr etish, milliy yozuvlarning tarqalishi.

XVII asrda Barokko va ma'naviy madaniyat. Ratsionalizm va ilg'or fanning dastlabki yutuqlari. Tabiiy bilimlar va texnik taraqqiyot. N. Kopernik, D. Bruno, G. Galiley, I. Nyuton. XVIII asr - ma'rifatparvarlik asri. Absolyutizmning inqirozi. Qomusiy olimlar. *Klassitsizm rivojlanishida yangi bosqich. Adabiyot va teatr, musiqa san'atining yuksalishi.*

**XVII - XIX asrlar jahon madaniyati** - XVIII asr va XIX asrning boshlarida Angliya va Ispaniya madaniyatida romantizm tendentsiyalarining namoyon bo'lishi. XIX asrda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va madaniyat sohasida yuz bergan o'zgarishlar. Sanoat inqilobi va ilmiy - texnikaviy yutuqlar.

Evropa san'atida romantizm va neoklassitsizm. Adabiyot va tasviriy san'atda realizm, impressionistlar va postimpressionistlar.

Ko'chmanchi o'zbeklar - Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida O'rta Osiyo madaniyatining rivojlanish xususiyatlari. Buxoro va Samarqandda qurilgan me'moriy yodgorliklar. XVI - XVII asrlar me'morchiligi an'analari. Adabiyotning rivojlanishi. O'zbek xalq og'zaki ijodi - "Alpomish" dostoni.

*XVIII - XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Ko'qonda madaniy hayotning qad rostlashi. Xonliklarda madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi: Xivada yaxlit me'morial ansambllar qurilishi. Buxoro va Qo'qon me'moriy yodgorliklari. Xiva va Qo'qon xonliklarida ma'naviy - adabiy muhit.*

Burjua munosabatlari va madaniyatda yangilanish jarayoni. *Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va Evropa madaniyatining kirib kelishi.* Turkiston shaharlarida Evropa me'moriy uslubi asosida yangi arxitekturaning shakllanishi. Evropa uslubidagi o'zbek teatrlarining paydo bo'lishi. Ma'rifatparvar adabiyot namoyondalari.

**XX asr jahon madaniyati** - XX asr boshlarida madaniyat rivojidadagi yangi yo'nalishlar. San'atning yangi turlari: kinemotografiya, televideniening vujudga kelishi va ularning teatr, adabiyot, rassomchilik va boshqa san'at sohalariga ta'siri.

Turkistonda jadidchilik harakatining ma'rifiy va siyosiy ahamiyati.

Sobiq Sovet davlatining tashkil etilishi yillarida O'zbekistondagi madaniy hayot. "Madaniy inqilob"ning milliy ruhiyat, milliy ma'naviyat va milliy madaniyatga salbiy ta'siri. Badiiy ijod sohasida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligini asrash uchun urinish. Madaniyat yodgorliklarini muhofaza etish, tarixiy merosni o'rganish, an'anaviy san'at turlarini rivojlantirish uchun kurash - bu davrdagi madaniy hayotning muhim qonuniyati.

Ikkinchi jahon urushi yillarida madaniyat. Adabiyot va san'atda urush mavzusi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil topishi (1943 y.). 50 - 80 yillarda fan, tasviriy san'at va me'morchilik. Adabiyot, kino, musiqa va teatr san'atining rivojlanishi.

Hozirgi zamon badiiyatida ommaviy yuksak (professional) madaniyatning o'zaro nisbati. Ilmiy texnologiya inqilobi va XX asr tsivilizatsiyasining agrar industrial hamda zamonaviy axborot - kompyuter bosqichlari. *Ilmiy va badiiy madaniyat* uy qunligi. Ma'rifiy ta'limda umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati. O'zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilish tadbirlari. Umumjahon vorisligi kontsepsiyasi, O'zbekistonda hozirgi madaniy rivojlanishning o'ziga xos xu susiyatlari.

**Milliy istiqlol va O'zbekistonda madaniy taraqqiyot** - milliy istiqlol, ma'naviyat, madaniyat. Milliy uyg'onish va milliy ong. Madaniyat jabhasidagi islohotlarda davlatning o'rni va vazifalari. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi. "Oltin meros" jamg'armasining milliy madaniyat ravnaqi, millatlararo madaniy muloqotni rivojlantirish, Komil insonni shakllantirishdagi roli. Hozirgi sharoitda adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik, teatr, musiqa, kino va televidenie rivojlanishidagi o'ziga xoslik. Ularning milliy qadriyatlarni tiklash, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishdagi roli. *«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati va ma'naviy - ma'rifiy islohotlar tizimini amalga oshirishdagi roli. Milliy madaniyat ravnaqida milliy madaniy markazlar hamda xalqaro madaniy aloqalarning o'rni va ahamiyati.*

### **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI**

#### **Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o'rganishning ahamiyati**

Madaniyat va jamiyat. Ijtimoiy - madaniy rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.  
Turli davrlar va mintaqaviy madaniyatlar muloqati, uning o'ziga xos xususiyatlari.

Vorislik mohiyati va uning madaniy taraqqiyotidagi roli.

Shaxs ma'naviyatining shakllanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi.\*

#### **Qadimgi Sharq madaniyati**

Qadimgi Misr, Mesopotamiya madaniyati.\*

Qadimgi Xitoy madaniyati.\*

Qadimgi Hindiston madaniyati.\*

#### **Qadimgi Evropa madaniyati**

Yunon - Ellin madaniyati.\*

Qadimgi Rim madaniyati.\*

Vizantiya madaniyati.\*

#### **Islom madaniyati**

Islom dinining vujudga kelishi va yoyilishi.

Islom qadriyatlari va ahkomlarining shakllanishi hamda rivojlanib borishi.

Islom madaniyati va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri.\*

#### **Xristianlik madaniyati**

Xristianlikning vujudga kelishi va yoyilishi.

Xristianlik ta'limotining mazhablari va yo'nalishlari.

Xristianlik madaniyati va ilm - fan.\*

#### **Sharq Uyg'onish madaniyati**

O'rta asrlarda Sharq xalqlarning madaniy - ma'naviy hayotida yuz bergan Uyg'onish davri.\*

Ilm - fan ravnaqi.

Adabiyot va san'at.



## **Evropa Uyg'onish madaniyati**

Evropa Uyg'onish davrining madaniy hayot rivojiga ta'siri.\*

Shaharlar hayoti. Universitet ta'limi.

Ilm - fan ravnaqi. Adabiyot va san'at.

### **XIX - XX asrlarda ilmiy - texnikaviy taraqqiyot**

XIX asrda ilg'or mamlakatlarda sanoat inqilobi, fan va texnika ravnaqi.

Madaniyatning ommaviylashuvi: radio, telekommunikatsiyalar va axborot vositalarining rivojlanishi.

Ilmiy - texnikaviy inqilob va uning yutuqlari.\*

### **XIX - XX asrlarda ma'naviy madaniyat ravnaqi**

XIX - XX asrlarda jahon xalqlari ma'naviy madaniyati yuksalishining muhim omillari.\*

### **Ta'lim taraqqiyoti. Ilm - fan ravnaqi.**

Adabiyot, teatr, kino, tasviriy san'at, musiqa.

**Laboratoriya ishlari** namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

**Kurs (loyiha) ishlari** namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

1. O'zbekistonning 10 yil mustaqil taraqqiyot yo'lini yorituvchi 8 ta o'quv filmlari.
2. Jadidlar faoliyatini yorituvchi «Buyuk siymolar» mavzusidagi foto portretlar.
3. Respublika san'at muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va boshqa madaniy - ma'rifiy muassasalarga tashriflar tashkil etish.
4. Testlarni kompyuterga kiritish orqali talabalar bilimini baholash va boshqalar.

## **5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI**

### **Nazorat qilish turlari**

Har haftada bo'ladigan seminar mashg'ulotida belgilangan mavzu bo'yicha joriy baholash o'tkaziladi. Jami 9 marta joriy baholash o'tkazilib, talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanadi. Semestr davomida JB bo'yicha talabalar bilimi 0 - 12,6 ball doirasida aniqlanadi.

Semestr davomida bir marta oraliq baholash o'tkaziladi. OB bo'yicha talabalar bilimi 0 - 12,6 ball doirasida beligilanadi.

Semestr oxirida yakuniy baholash o'tkaziladi va talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 - 10,8 ball doirasida baholanadi.

So'ngra talabaning JB, OB va YaB da olgan reyting ballari jamlanib, umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 - 36 ball doirasida baholanadi

Talabaning bilimi quyidagi mezonda baholanadi:

31,0 dan 36,0 ballgacha – «a'lo» (86 - 100 foiz) baho;

25,6 dan 30,6 ballgacha – «yaxshi» (71 - 85 foiz) baho;

19,8 dan 25,2 ballgacha – «qoniqarli» (55 - 70 foiz) baho;

0 dan 19,4 ballgacha – «qoniqarsiz» (0 - 54,8 foiz) baho.

## 6. ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. - T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. - T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan T.4. - T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. - T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – - T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush - pirovard maqsadimiz. T.8.. - T.:O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. - T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. –T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. // Xalq so'zi, 2002 yil, 6 dekabr.
13. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.Tanlangan asarlar. 1 - t., - T., 1988.
14. Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu. –T.: O'zbekiston, 1998.
15. Abduxoliqov S.Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. - T.: Fan, 1992.
16. Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya – T., 2001.
17. Boboev H., Xamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. –T.: Yangi asr avlodi, 2001.
18. Boboev H. , Hasanov S. «Avesto» - ma'naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001.
19. Boynazarov F. Antik dunyo. - T.: Mehnat, 1983.
20. Bonnar A. Grecheskaya tsivilizatsiya. 3 toma. –M., 1992.
21. Drevniy Vostok i mirovaya kultura. - M., 1981.
22. Erasov V. Kultura, religiya i tsivilizatsiya na Vostoke. - M., 1990.
23. Iskusstva stran narodov mira. Entsiklopediya. - M., 1956 - 1978.
24. Kumanetskiy K. Istoriya kulturi drevney Gretsii i Rima. –M., 1990.

25. Kolpinskiy Yu. D. Velikoe nasledie antichnoy Elladi i ego znachenie dlya sovremennosti. - M., 1977.
26. Kasambi D. Kultura tsivilizatsii drevney Indii. - M., 1986.
27. Kultura Drevnego Egipta. - M., 1976.
28. Kultura epoxi Vozrojdeniya. - M., 1986.
29. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Gulmetov E. va boshqalar. -T.: DITAF, 2000.
30. Mavrulov A. Ma'naviyatni sog'lomlashtirish davri. - T.: O'zbekiston, 1996.
31. Mustaqillik. Ilmiy - ommabop lug'at, - T., 1998.
32. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - T.: Fan, 1994.
33. Maxmudov R. Xuquq va madaniyat. - T.: O'zbekiston, 1994.
34. Nikolskiy N. Kultura drevney Vavilonii. - M., 1959.
35. Ocherki istorii arabskoy kulturi U - XU vekov. - M., 1982.
36. Osnovi teorii kulturi - M., 1986.
37. Razumovich N. Politicheskaya i pravovaya kultura. M., 1989.
38. Sattor M. O'zbek udumlari. - T.: Fan, 1993.
39. Silichev D. Kulturologiya. Uchebnoe posobie dlya VUZov. -M., 1998.
40. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: Fan, 1991.
41. Trimengem Dj. S. Sufiyskie ordena v islame. - M., 1989.
42. Xayrullaev M., Shorahmedov D. Madaniyat va meros. - T.: G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
43. Xasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. - T.: Adolat 2001.
44. Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX - XIII vekov.. - T.: Izd. literaturi i iskusstva im.G.Gulyama, 1983.
45. Cheboksarov K. Narodi, rasi, kultura - M., 1985.
46. Sharifxo'jaev M. Istiqlol istiqbollari. - T.: O'zbekiston, 1994.
47. Qoraboev S. O'zbekiston bayramlari. - T.: O'qituvchi, 1992.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abduraxmonov A. Ulug'bek akademiyasi. - T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993.
2. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf - odatlar. - T.: Fan, 1990.
3. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. -T.: Nur, 1992. Amir Temur o'g'itlari. - T., 1992.
4. Antichnoe nasledie v kulture Vozrojdeniya. - M., 1994.
5. Babaev X., Duschanov T., Xasanov S., Allamov Ya. Rol «Avesti» v duxovnom razvitii chelovestva. - Urgench: Xorazm 2002.
6. Buyuk siymolar, allomalar. 1,2,3,4 kitoblar. -T.:

7. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995, 1996, 2000.
8. Bromley Yu. Sozdano chelovechestvom. –M., 1984.
9. Vostok i Zapad. Issledovaniya. Perevodi. Publikatsii. - M.: Nauka, 1982.
10. Gurevich A. Srednevekoviyy mir: kultura bezmolvstvuyushchego bolshinstva. –M.: Iskusstvo, 1990.
11. Djeym G. Rimskaya tsivilizatsiya
12. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. –T.: O'zbekiston, 1996.
13. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. - T.: Universitet, 1993.
14. Iskustva stran Vostoka. - M.: Prosveshchenie, 1986.
15. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqolo, 1994.
16. Kniga i sotsialniy progress. - M., 1986.
17. Komilov N. Tafakkur karvonlari. –T.: Ma'naviyat, 1999.
18. Ma'naviyat yulduzlari, - T., 1998.
19. Madaniyat va jamiyat. - T.: O'zbekiston, 1993.
20. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul - mulk. –T.: Adolat, 1997.
21. Odobnoma. - T., 1992.
22. Ocherki istorii iskusstva. - M., 1987.
23. Oppenxeym A. Drevnyaya Mesopotamiya. - M., 1990.
24. G. Pugachenkova, L. Rempel. Ocherki istorii iskusstva Sredney Azii, - M., 1982.
25. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari - T.: Fan, 1985.
26. Xuk S. Mifologiya Blijnego Vostoka. - M.: O'zbekiston, 1992.
27. Shayxova X. Inson va uning ma'naviy dunyosi. - T., 1993.
28. Yusupov E. Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti. –Xo'jand, 1996.
29. Hamidov H. Qirq besh alloma hikoyati. –T.: Fan, 1995.
30. Hadis olimlar, qozilar, hokimlar haqida. –T.: Cho'lpon, 1996.

G'afurov Z. Mustaqillikning ma'naviy zaminlari. - Qarshi, 1994.